PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

DIZARTRIYA NUTQ KAMCHILIGI BO‘LGAN BOLALARDA XOTIRA XUSUSIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Iminjonova Moxichexra Alimardon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim va maxsus pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika:logopediya yo’nalishi 401-guruh talabasi
iminjonovamoxichexra@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23394204

Annotatsiya: Ushbu maqolada dizartriya nutq kamchiligi bo‘lgan bolalarda xotira jarayonining shakllanishidagi o‘ziga xos xususiyatlar, xotiraning rivojlanishiga ta’sir etuvchi neuromotor va psixologik omillar hamda xotirani takomillashtirishning samarali metodlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida verbal, vizual, motor va eshituv xotirasini rivojlantiruvchi mashqlar, sensor-motor treninglar va logopedik metodikalar yoritilgan. Maqolada xotiraning rivojlanishi dizartriya bilan bog‘liq nutqiy kamchiliklarning bartaraf etilishida muhim omil ekani ilmiy asoslangan. Oxirida logoped-o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: dizartriya, nutq kamchiligi, xotira, verbal xotira, vizual xotira, eshituv xotira, motor xotira, logopediya, sensor-motor mashqlar, kognitiv rivojlanish.

Dizartriya - markaziy nerv tizimi zararlanishi natijasida artikulyatsion mushaklar innervatsiyasining buzilishi bilan kechuvchi nutq kamchiligi bo‘lib, bolalarda nafaqat talaffuz, balki kognitiv jarayonlarning ham sekinlashuviga sabab bo‘ladi. Xususan, xotira jarayoni dizartriya bilan og‘rigan bolalarda yetarlicha rivojlanmagan bo‘lib, bu ularning nutqiy, o‘quv va ijtimoiy kompetensiyalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

A.R. Luriya dizartriyani miya po‘stlog‘i va osti tuzilmalarining shikastlanishi bilan bog‘laydi. Uning fikriga ko‘ra:

- Bolalarda eshituv xotirasi, kinestetik (harakat) xotira va motor ketma-ketlikni eslab qolish jarayoni eng ko‘p buziladi.
- Xotirani rivojlantirish uchun ketma-ketlik, ritm, eshituv e’tiborini mustahkamlovchi mashqlar muhim.

Dizartriyada xotira buzilishi neyromotor diskoordinatsiya bilan bog‘liqdeb ta’rif beradi.

R.E. Levina dizartriya nutqini o‘rgangan yetakchi logoped olimlardan biri.

Uning fikriga ko‘ra:

- Dizartriya bilan og‘rigan bolalarda motor xotira juda sust.
- Artikulyatsion harakatlarni eslab qolish qiyinligi nutqning ravon rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.
- Xotira mashqlarida artikulyatsion zanjir, tovushlar ketma-ketligi va harakatni takrorlash alohida o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, artikulyatsion xotira – rivojlantirish kerak bo‘lgan asosiy soha hisoblanadi.

T.B. Filicheva va G.V. Chirkina dizartriya bo‘yicha logopedik metodikaning asoschilari. Ularning fikricha:

- Dizartriyada fonematik eshituv va eshituv xotirasi sekin rivojlanadi.
- So‘z va tovushlarni eslab qolish qiyinchiligi nutqning to‘g‘ri shakllanishiga ta’sir qiladi.
- Mashg‘ulotlar “eshit–tanla–takrorla” tamoyiliga asoslanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda: eshituv xotirasini kuchaytirish dizartriya reabilitatsiyasining asosiy shartidir.

O.A. Tokareva neyromotor buzilishli bolalar psixologiyasini o‘rgangan. Unga ko‘ra:

- Dizartrik bolalarda ko‘ruv xotirasi nisbatan saqlangan, ammo mantiqiy-xotira zaif.

Xotirani rivojlantirishda ko‘ruv tayanchlari, piktogramma va vizual sxemalar qo‘llash samarali. Uning fikriga qaraganda, vizual tayanchlar xotirani faollashtiradi.

6. N.S. Zhukova nutq buzilishlarini tuzatish metodlarida shuni ta’kidlaydi: Dizartriya bolalarda so‘zlarni yodlash, gapni eslab qayta aytish juda sekin kechadi. Xotirani rivojlantirish uchun takrorlash, yodlash va lug‘atni kengaytirish bilan ishlash zarur. Lug‘at boyligi oshishi xotira kuchayishiga yordam beradi deb ta’kidlaydi.

Xotira — psixik jarayonlarning murakkab tizimi bo‘lib, unda ma’lumotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va esga tushirish funksiyalari mavjud. Dizartriya bo‘lgan bolalarda xotiraning verbal, vizual, eshituv va motor turlari ko‘pincha sust rivojlangan bo‘ladi. Shu sababli ushbu maqola mazkur bolalarda xotirani rivojlantirishning ilmiy asoslari va korreksion metodlarini yoritishga qaratilgan.

Dizartrik bolalarda so‘zlar ketma-ketligini eslab qolish, qisqa matnlarni yodlash, fonetik elementlarni eslab qolish jarayonlari sust rivojlangan bo‘ladi. Nutqiy eslab qolishning pastligi fonematik idrokning buzilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Dizartrik bolalarda xotira susayganligining asosiy belgilari:

- so‘zlarni tartib bilan takrorlay olmaslik;
- matn mazmunini tez unutish;
- tovush farqlarini eslab saqlash qiyinligi
- rasm ketma-ketligini eslay olmaslik;
- shakl va belgilarni chalkashtirish;
- obrazli xotiraning kamligi.
- 3–4 so‘zni tartib bilan takrorlay olmaslik;

Xotirani rivojlantirishning samarali metodlari:

1. “Farqlarni top” o‘yini;
2. Rasm ketma-ketligini yodlash;
3. Pazzl va mozaika bilan ishlash;

Dizartriya nutq kamchiligi bo‘lgan bolalarda xotira jarayonining pasayishi neuromotor, psixik va nutqiy omillar bilan bog‘liq. Xotirani rivojlantirish logopedik ishning ajralmas qismi hisoblanadi. Vizual, eshituv, verbal va motor xotirani rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar orqali bolalarning nutqiy faoliyati, o‘quv ko‘nikmalari va kognitiv salohiyati sezilarli darajada oshadi. Xotiraning mustahkamlanishi esa nutqiy kamchiliklarning bartaraf etilishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M. Logopediya. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2019.
2. Ayupova M., Rasulova Sh. Nutq nuqsonlarini aniqlash va tuzatish metodikasi. – Toshkent, 2018.
3. Usmanova R., Jabborova G. Maxsus pedagogika va logopediya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
4. Levina R.E. Dizartriya u bolshenstva detey s DCP. – Moskva: Pedagogika, 2004.
5. Pravdina S.V. Narusheniya zvukoproiznosheniya u detey. – Sankt-Peterburg: Rech, 2006.
6. Volkova G.A. Logopediya: Uchebnik dlya studentov pedagogicheskix vuzov. – Moskva: Vlados, 2013.
7. Lalaeva R.I., Vlasova T.A. Logopedicheskaya rabota pri dizartrii. – Moskva: Vlados, 2012.
8. Жўрахўжаев, М. Х. (2022). ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАР УЙДА ЯККА ТАРТИБДАГИ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 295-298.
9. Jurahojaev, M. K. O. (2022). MECHANISMS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF INDIVIDUAL HOME EDUCATION FOR THE DISABLED CHILDREN. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022(3), 171-180.
10. Jo‘raxo‘jayev, M. X. Imkoniyati cheklangan bolalarning uyda yakka tartibdagi talimi samaradorligini oshirish mexanizmlari: Pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Jizzax–2023.–36-bet.
11. Jo‘raxo‘jayev, M. X. (2022). Uyda yakka tartibdagi ta’lim o ‘qituvchisining portreti/“Tilni o ‘qitish va o ‘rganishda XXI asr ko ‘nikmalari” III xalqaro anjuman materiallari.